



TURKIYANING TASHQI SIYOSATIDA MADANIY DIPLOMATIYA INSTITUTLARI VA ULARNING FAOLIYAT MEXANIZMLARI

Japparov Shuhrat Gapparovich

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21772864>

ARTICLE INFO

Received: 21st July 2026

Accepted: 22nd July 2026

Published: 31st July 2026

KEYWORDS

madaniy diplomatiya, yumshoq kuch, Turkiya tashqi siyosati, institutsional mexanizmlar, TIKA, Yunus Emre instituti, YTB, ta'lim diplomatiyasi, gumanitar diplomatiya, media diplomatiyasi.

ABSTRACT

Maqolada Turkiya Respublikasining zamonaviy tashqi siyosatida madaniy diplomatiyaning o'rni, uning nazariy asoslari, institutsional tuzilishi va amaliy faoliyat mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniy diplomatiya "yumshoq kuch" konsepsiyasining muhim vositasi sifatida baholanib, Jozef Nay, Jan Melissen, Milton C. Cummings, Ahmet Dovuto'g'li, Ibrohim Kalin va Muharrem Ekshi qarashlari asosida yoritiladi. Muallif Turkiyaning madaniy ta'siri yagona tashkilot faoliyatiga emas, balki o'zaro muvofiqlashtirilgan davlat va nodavlat institutlari tizimiga tayanishini asoslaydi. Xususan, TIKAning rivojlanish va gumanitar diplomatiyadagi, Yunus Emre institutining til va madaniyatni targ'ib etishdagi, YTBning diaspora hamda ta'lim diplomatiyasidagi, Diyanetning diniy diplomatiyadagi, TRT va Anadolu agentligining media diplomatiyasidagi vazifalari ochib beriladi. Shuningdek, Turkologiya loyihasi, Turkiya stipendiyalari, madaniy markazlar, ilmiy almashinuvlar, restavratsiya dasturlari va turkiy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikning ahamiyati ko'rsatiladi. Maqolada ushbu institutlarning funksional uyg'unligi Turkiyaning xalqaro nufuzi, ijobiy imiji va xorijiy jamiyatlar bilan uzoq muddatli ishonch munosabatlarini mustahkamlashiga xizmat qilishi xulosa qilinadi.

Kirish

XXI asr xalqaro munosabatlari tizimida davlatlarning tashqi siyosiy maqsadlariga erishish usullari sezilarli darajada transformatsiyaga uchradi. An'anaviy harbiy-siyosiy va iqtisodiy bosim vositalari bilan bir qatorda davlatlarning madaniy, ilmiy, gumanitar va axborot salohiyatidan foydalanishga asoslangan yangi diplomatik mexanizmlar shakllandi. Mazkur jarayon natijasida "madaniy diplomatiya" zamonaviy tashqi siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ayniqsa, o'z tarixiy-madaniy merosiga, umumiy sivilizatsion qadriyatlarga va

transmilliy madaniy aloqalarga tayanuvchi davlatlar uchun madaniy diplomatiya xalqaro nufuzni mustahkamlash, ijobiy imij yaratish hamda uzoq muddatli strategik sheriklikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Turkiya Respublikasining madaniy diplomatiyasi XXI asr boshidan boshlab mamlakat tashqi siyosatining institutsional jihatdan eng faol rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon, avvalo, madaniyatni davlatning xalqaro nufuzini oshirish vositasi sifatida talqin etuvchi zamonaviy "yumshoq kuch" konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur nazariyaning asoschisi Jozef Nay davlatlarning xalqaro maydondagi muvaffaqiyati faqat harbiy yoki iqtisodiy salohiyat bilan emas, balki ularning madaniy jozibadorligi, qadriyatlari va tashqi siyosatining legitimligi bilan ham belgilanishini ta'kidlaydi [1]. Shu bois madaniy diplomatiya yumshoq kuchning amaliy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv madaniy diplomatiyaning nazariy poydevorini tashkil etadi va keyinchalik ko'plab tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirildi.

Jozef Nay tomonidan ilgari surilgan mazkur yondashuvni baholar ekan, ingliz olimi Jan Melissen zamonaviy diplomatiya endilikda faqat hukumatlararo muzokaralar bilan chegaralanib qolmasligini, balki xorijiy jamiyatlar bilan uzoq muddatli ishonch munosabatlarini shakllantirishni ham qamrab olishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, madaniy diplomatiya ommaviy diplomatiyaning eng barqaror yo'nalishlaridan biri bo'lib, davlatlarning xalqaro legitimligi va nufuzini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

Amerikalik tadqiqotchi Milton C.Cummings esa madaniy diplomatiyaga yanada torroq va amaliy ta'rif beradi. Olimning fikricha, madaniy diplomatiya – bu "xalqaro o'zaro tushunishni rivojlantirish maqsadida g'oyalar, axborot, qadriyatlar, an'analar, e'tiqodlar va madaniyatning boshqa elementlari almashinuvi jarayoni"dir. Mazkur ta'rif bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda eng ko'p murojaat qilinadigan klassik ta'riflardan biri hisoblanadi.

Turk tadqiqotchilari Turkiya madaniy diplomatiyasining muvaffaqiyatini, avvalo, uning kuchli institutsional tizimi bilan izohlaydilar. Jumladan, Ibrohim Kalin Turkiyaning yumshoq kuch salohiyati tarix, madaniyat va geografik merosga asoslanishini hamda yangi turk madaniy diplomatiyasi aynan shu omillarni strategik resursga aylantirishga qaratilganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, madaniy diplomatiya davlatning tashqi siyosiy maqsadlarini xalqaro auditoriyaga yetkazuvchi muhim mexanizm hisoblanadi [2]. Shu bilan birga, Sait Yag'inji o'z tadqiqotida Yunus Emre Institutlari faoliyati misolida Turkiya madaniy diplomatiyasi faqat madaniyatni targ'ib qilish emas, balki xorijiy hamkor davlatlarda ijobiy imij shakllantirish, ta'lim, til va madaniy almashinuv orqali uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlash vositasi sifatida baholanadi [3]. Muallif, ayniqsa, 2000-yillardan boshlab madaniy diplomatiya Turkiya tashqi siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanganini asoslaydi. Mazkur institutsional modelni amalga oshirishda TIKa, Yunus Emre Institutlari, Diyanet va davlat OAV tizimi o'zaro uyg'un faoliyat yuritadi. Aynan shu ko'ptarmoqli institutsional yondashuv Turkiyaning Markaziy Osiyoda madaniy ta'sirini tizimli ravishda amalga oshirish imkonini bermiqda. Demak, Turkiya madaniy diplomatiyasining institutsional asoslari yagona tashkilot faoliyatiga emas, balki davlat idoralari, ta'lim muassasalari, madaniy institutlar va gumanitar loyihalarning integratsiyalashgan tizimiga tayanadi. Aynan ushbu mexanizm Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini chuqurlashtirish va turkiy dunyo doirasidagi hamkorlikni mustahkamlashda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'layotganini ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism va natijalar

XXI asr boshlariga kelib, Turkiya tashqi siyosatini ishlab chiqishda AKP alohida ahamiyat kasb etib, ayniqsa, respublikani yangi tashkil etilayotgan dunyo tartibotida o'zining o'rniga ega bo'lish kerakligi to'g'risidagi A.Dovuto'g'li tomonidan ilgari surilgan tezis, uning kelgusi maqsadlarini aks ettirdi. Olimning "Strategik chuqurlik" konsepsiyasida Turkiyaning xalqaro ta'siri geografik joylashuv bilangina emas, balki tarixiy va madaniy merosi bilan ham

belgilanishi ta'kidlanadi. Mazkur konsepsiya keyinchalik Turkiyaning Markaziy Osiyo, Bolqon, Kavkaz va Yaqin Sharqdagi madaniy diplomatiya siyosatining nazariy asoslaridan biriga aylandi. Tezisdan asosan, zamonaviy Turkiya tashqi siyosatini islohotga muxtoj ekanligi va avvalgidek konservativ qarashlarga to'la, asosini harbiy byurakratiya tashkil etuvchi eskirgan tizim endi foydasiz ekanligiga ishora qilinadi [4]. Shu nuqtai nazardan, mamlakat tashqi siyosiy ta'sirchanligi samaradorligini oshirish uchun faqat qattiq vositalardan foydalanib qolmasdan yangicha yo'nalishga murojaat qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Turkiya madaniy diplomatiyasini tizimli ravishda o'rgangan yetakchi turk olimlaridan biri Muharrem Ekşi hisoblanadi [5]. Uning tadqiqotlarida Turkiyaning 2000-yillardan keyingi tashqi siyosati "institutsionallashtirilgan yumshoq kuch" modeli sifatida tavsiflanadi. Ekşi ta'kidlashicha, Turkiya avvalgi davrlardan farqli ravishda madaniy diplomatiyani alohida institutlar orqali amalga oshirishga o'tdi. U bu tizimning asosiy elementlari sifatida TIKAni rivojlanish va gumanitar diplomatiya instituti, Yunus Emre institutini madaniy diplomatiya markazi, YTBni diaspora va ta'lim diplomatiyasi subyekti, Diyanetni diniy diplomatiya vositasi hamda TRT va Anadolu Agentligini media diplomatiyasining asosiy institutlari sifatida ko'rsatadi. Ekşining ushbu yondashuvi ilmiy nuqtai nazardan alohida e'tiborga loyiq. Chunki u madaniy diplomatiyani faqat madaniyatni targ'ib qilish bilan cheklamaydi, balki uni davlatning tashqi siyosat strategiyasini amalga oshiruvchi kompleks institutsional tizim sifatida talqin qiladi.

AKP davrida ta'sirini oshirgan Diyanet, TIKA, Türk Qizilay, TÜRKSOY va Yunus Emre kabi muassasalarning faoliyati mamlakatning madaniy diplomatiya orqali dunyoda ijobiy qabul qilinishi hamda munosabatlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Shunday qilib Turkiya, madaniy diplomatiya yordamida Markaziy Osiyo, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq va Bolqon kabi mintaqalar bilan aloqalarni mustahkamlamoqda.

Madaniyatga bog'liq holda yumshoq kuchdan foydalanish dinamik bir tuzilishga ega bo'lgani uchun Turkiya bu sohada doimiy ravishda faol tashqi siyosat olib bormoqda. Ikkinchidan, Turkiya turli sivilizatsiyalarga mezbonlik qilgan geografiyada joylashgani uchun boy tarixiy merosga ega. Shuning uchun u tarixiy ildizlarga ega bo'lgan Markaziy Osiyo turk davlatlari bilan munosabatlarida madaniy qadriyatlar nuqtai nazaridan ega bo'lgan ushbu ustunlikni aks ettirishda davom etmoqda. Uchinchidan, Turkiya tashqi siyosatining bir bo'lagiga aylangan madaniy diplomatiyaning oxirgi yigirma yil ichida yuqorida tilga olinganidek faol qo'llab, o'zaro munosabatlarda ijobiy natijalarga erishganini aytish mumkin. To'rtinchidan, Turkiyaning san'at va sport tadbirlari, ta'lim loyihalari, noyob arxitektura obidalarining restavratsiyasi faoliyati, kino va teleseriallar hamda ijtimoiy tarmoq sahifalari orqali, Markaziy Osiyodagi turkiy davlatlarda o'zining madaniy diplomatiyasidan samarali foydalanmoqda.

Muhokama

Turkiya ham o'zi ishlab chiqqan institutsional tuzilmalar orqali hamkorlikni yo'lga qo'yish va munosabatlarni mustahkamlashda foydalanib, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy diplomatiya yondashuvini amalga oshiradi. Xususan, Turkiy Kengash tarkibidagi muassasalar, TIKA va Yunus Emre institutining mamlakatning madaniy diplomatiya vositasi sifatidagi faoliyati Turkiyaning mintaqadagi ta'sirini oshirmoqda. Shunday qilib, Turkiya turli sivilizatsiyalarga mezbonlik qilgan, qaror topgan madaniy qadriyatlar va tarixiy muhimlik nuqtai nazaridan mintaqada madaniy diplomatiyadan foydalanish uchun boy imkoniyatlarga ega ekanligi namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Turkiya dunyoviylik, demokratiya, modernizatsiya va islom qadriyatlari kabi jamiyat komponentlarini uyg'un holda birlashtirgan o'ziga xos tuzilishga ega. Bundan tashqari, iqtisodiyotining tiklanishi ham mintaqada muhim o'rin egallashiga yordam berdi. Madaniyat, ta'lim, san'at, ommaviy axborot vositalari, kino, adabiyot, arxitektura, oliy ta'lim, nodavlat tashkilotlar, fan va texnologiya infratuzilmasi, turizm, iqtisodiy hamkorlik platformalari va diplomatiya kabi yumshoq kuch manbalarini

qo'llab-quvvatlovchi elementlarni hisobga olgan holda Turkiya musulmon davlatlari orasida madaniy ta'sir kuchiga ega ekanligini aytish mumkin.

Tashqi siyosatda turli madaniy, diniy va ijtimoiy yondoshuvlar ta'siri hamda jamoatchilik fikri birinchi o'ringa chiqadi. Jamoat tashkilotlari yoki nodavlat muassasalar bu borada turli tadqiqotlar olib borishi davlat uchun juda qo'l kelishi mumkin. Ushbu tadqiqotlar mamlakatning yumshoq kuchini mustahkamlashga va uzoq muddatli istiqbolda uning salohiyatini va salmog'ini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Turkiya Respublikasi ham bunday funksiyalarni amalda bajara oladigan tashkilotlar ustida ishlashi o'tgan asrning oxiriga to'g'ri keladi va mamlakatda shunday tashkilotlar hamda muassalar faoliyati asta sekinlik bilan rivojlantirildi. Asosan 90-yillarida tashkil etilgan ushbu tashkilotlar e'tibor markazida dastlab, ta'lim va gumanitar yordam, til va madaniyat sohalarini olgan edi. Keyingi bosqichlarda funksiyalarning xilma-xilligi ortib, ta'sir doirasi ham mos ravishda kengayib bordi. Bunday tashkilotlarga, Turk hamkorlik va taraqqiyot boshqarmasi (TIKA), Yunus Emre instituti, Chet eldagi turklar va qarindosh jamiyatlar (YTB), Qizil yarim oy (asosan tibbiy yordam), AFAT, Diyanet (diniy targ'ibot) va boshqa shu kabi katta kichik tashkilotlarni aytish mumkin.

TIKA 1992-yilda Turkiya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga qarashli xalqaro texnik yordam tashkiloti sifatida tashkil etilgan. 1999-yilda Bosh vazirlik bilan birlashtiriladi va 2001-yilda Bosh vazirlikka bog'liq mas'ul yuridik shaxs maqomiga ega bo'ldi [6]. Shunday qilib, yangi tuzilgan tashkilot Tashqi ishlar byurokratiyasidan alohida harakat qilish qobiliyatiga ega muassasa sifatida faoliyat yurita boshladi. Uning maqsadi dastlab yangi tashkil etilgan Turk respublikalarini qayta qurish, moslashish va rivojlanish ehtiyojlariga yordam berishdan iborat bo'ldi.

TIKA turkiyzabon Turkiy Respublikalarning rivojlanishi uchun yordam berish bilan birga, u butun dunyo bo'ylab madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnik va tijorat sohalarida loyihalar ishlab chiquvchi juda katta platformaga ega tashkilotdir. SSSR parchalanganidan keyin mustaqillikka erishgan 15 ta respublikaning 6 tasida aholining asosiy qismini musulmonlar va turklar tashkil etardi. Shu sababdan Turkiya bu respublikalarning mustaqilligini mamnuniyat bilan qo'llab-quvvatladi va tez orada TIKA orqali yordam berishni yo'lga qo'ydi. Biroq, bu yordam yangi tashkil etilgan Turkiy Respublikalar uchun kerakli miqdorni bera olmadi, ehtimol bu o'sha davrning iqtisodiy sharoiti yaxshi bo'lmagani bilan bog'liq deb ta'kidlanadi. O'rtadagi iqtisodiy nomutanosiblik tashqi siyosatdagi iqtisodiy ta'sirini pasaytirib unda yumshoq vositalardan foydalanish zarurligini ko'rsatdi. TIKAning shu yo'nalishga moslashtirilgan Kavkaz, Markaziy Osiyo va Bolqondagi yordamlari bu rejani amalga oshirishga qo'l keldi. Keyinchalik bu yordam Afrikada ham yo'lga qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, boshqa mamlakatlarda o'z madaniyat, an'anaviy meyorlar hamda qadryatlarni ko'rsatish orqali mamlakatga nisbatan ijobiy ta'surot va qiziqish uyg'otish hamda bu bilan davlat yumshoq kuchini amalga oshirish mumkin. Bunday sharoitda yordamga muhtoj davlat yoki xalqlar mamlakatni o'rnak qilib oladilar, xalqaro muhitda uning ortidan ergashadi, kerak bo'lganda unga ishonadilar [7]. Bugungi kunda TIKAning shu kabi vositalari orqali Turkiya tashqi siyosatida yumshoq kuchni amalga oshirishni nazorat qiladi va mukammallashtiradi. Shu jihatdan, xalqaro miqyosda gumanitar yordam ko'rsatish orqali muhtoj xalqlarning asosiy ehtiyojlarini qondirish, ularga til va madaniyatini singdirish orqali Turkiyaning dunyodagi obro'-e'tiborini oshirish va o'z maqsadlariga erishishda sharoitlar yaratadi.

Hozirgi davrda TIKA faoliyatini takomillashtirish orqali uning qamrov maydonini tobora kengaytirilmoqda. Uning dasturlarni muvofiqlashtirish idoralari sonini 2002-yildagi 12 tadan, 2011-yilda 25 taga, 2012-yilda esa 33 taga oshirdi. 2023-yilgi berilgan hisobotga ko'ra, Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi 30 yil davomida 170 ta davlatda faoliyatini yo'lga qo'yib, 30000 mingdan ortiq loyihalarni amalga oshirdi [8]. Ayni vaqtda TIKA 61 ta

davlatda rasmiy idoraga hamda 63 ta Dasturni muvofiqlashtirish boshqarmasiga ega tashkilot sanaladi [9].

TIKA borasida Turkiyaning sobiq bosh vaziri o'rinbosari Hakan Chavusho'g'lining quyidagi fikrlari e'tiborga molik. "TIKA sharofati bilan mamlakatning juda ko'p mintaqalarda tan olinishi ortib bormoqda, biz bilmagan millionlab odamlarning va davlat organlarining Turkiyaga nisbatan qarashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buni Turkiyaning yumshoq kuchiga qo'shish hissi desak xato bo'lmaydi" [10]. Darhaqiqat tashkilotning faoliyati Turkiyaning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi, obro'sini mustahkamlaydi va mamlakat yumshoq kuchiga mutlaqo ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2000-yillardan keyin TIKA tomonidan amalga oshirilgan eng muhim loyihalardan biri *Turkologiya loyihasi*, u chet elliklar, turkiyzabon va qardosh jamoalar hamda xorijlik fuqarolarga turk tilini o'rgatish, turk madaniyati, san'ati, tarixi va qadryatlarini tanishtirish maqsadida amalga oshirildi. TIKA tomonidan 10 yil davomida muvaffaqiyatli davom ettirilgan loyiha 2011-yilga kelib Yunus Emre institutiga topshirildi. Turkologiya loyihasi doirasida imzolangan protokollar bilan mazkur davlat universitetlarida turkologiya, turk tili va adabiyoti bo'limlari ochilib, ushbu kafedralarning professor-o'qituvchilari bilan ta'minlandi [11].

Turkologiya loyihasi xorijdagi turli universitetlar bilan hamkorlikda turk tili, madaniyati, adabiyoti va san'atini targ'ib qilish va shu mavzularda ta'lim olishni istagan har bir shaxs uchun xizmat qiladi. Shuningdek, institut xorijdagi universitetlar bilan "Turkologiya loyihasi hamkorlik protokoli"ni imzolash orqali mavjud turkologiya bo'limlarini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi va yangi bo'limlar ochilishini rag'batlantiradi. Dastlabki davrda 13 nafar professor-o'qituvchilar tarkibi bilan boshlangan Turkologiya loyihasi 20 dan ortiq turli mamlakatlardagi 36 ta universitetda 58 ta Turkologiya va Turk tili va adabiyoti bo'limlarida faoliyat yuritayotgan 50 nafar akademik bilan o'z yo'lida davom etmoqda [12]. Shuningdek, Turkologiya loyihasi turk tili ta'limini butun dunyoga yoyish, dunyoning barcha davlatlari bilan aloqani mustahkamlash, ta'lim, madaniy, ijtimoiy va ijtimoiy sohalarda turk tilini tushunadigan odamlar segmentini jalb etishni maqsad qilgan.

Turkiya madaniy diplomatiyasi institutsional tizimining ikkinchi muhim bo'g'ini Yunus Emre Instituti hisoblanadi. Agar TIKA rivojlanish va gumanitar hamkorlik orqali Turkiyaning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilsa, Yunus Emre instituti bevosita til, madaniyat, adabiyot, san'at va akademik almashinuv vositasida mamlakatning madaniy jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan. Shu sababli zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu institut ko'pincha Turkiyaning madaniy diplomatiya siyosatining eng muhim institutsional tayanchi sifatida e'tirof etiladi [13].

Institutning maqsadi Turkiya Respublikasini tarixiy va madaniy qiyofasini turli mintaqalarda va mamlakatlarda samarali tarzda targ'ib qilishdir. Shuningdek, Institut tomonidan yozgi maktablar tashkil etilib, bu xorijliklar uchun turk tilini o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari Institutning turli sohalarda tadqiqotlar olib borishi, bu tadqiqotlar bilan bog'liq ma'lumot va hujjatlarni butun dunyo manfaati uchun ishlatish, turk tilini o'rganishni istaganlarga yordam berishi va turli mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish kabi vazifalari ham bor [14].

Yunus Emre instituti 63 mamlakatdagi idoralari hamda jami 41 ta turk madaniyati markazi orqali Turkiyaning turk tili, madaniyati, san'ati va tarixini tanishtirish va ommalashtirish maqsadida tadqiqotlar olib boradi [15].

Turk olimi Muharrem Eksi mazkur jarayonni Turkiya tashqi siyosatining "institutsionallashtirgan yumshoq kuch" modeliga o'tishi sifatida tavsiflaydi. Uning ta'kidlashicha, 2000-yillarda Turkiya madaniy diplomatiyani tasodifiy madaniy tadbirlar yig'indisi sifatida emas, balki davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Shu jarayonda Yunus Emre instituti til va madaniyatni targ'ib qiluvchi markaz sifatida, TIKA rivojlanish hamkorligi instituti sifatida, TRT va Anadolu Agentligi esa media diplomatiyasining asosiy vositalari

sifatida yagona strategik tizimning tarkibiy qismlariga aylandi. Olimning fikricha, aynan institutlar o'rtasidagi funksional uyg'unlik Turkiya yumshoq kuchining samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir [16].

Eksining mazkur qarashi ilmiy nuqtai nazardan Joseph Nyening yumshoq kuch nazariyasining institutsional talqini sifatida baholanishi mumkin. Nye davlatning jozibadorligi uning madaniyati va qadriyatlari orqali shakllanishini asoslagan bo'lsa, Eksi ushbu jozibadorlikning amaliy tashuvchilari aynan davlat tomonidan yaratilgan madaniy institutlar ekanligini ko'rsatadi. Shu jihatdan Yunus Emre instituti Turkiyaning madaniy resurslarini xalqaro auditoriyaga yetkazuvchi vositachi institut vazifasini bajaradi.

Turkiya madaniy diplomatiyasi bo'yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda Ahmet Fethi Gun Yunus Emre institutining faoliyatini ommaviy diplomatiya va madaniy diplomatiya kesishgan nuqtada tahlil qiladi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, institutning asosiy vazifasi xorijiy auditoriyaga turk madaniyatini tanishtirish bilan cheklanmaydi. U uzoq muddatli ijtimoiy ishonchni shakllantirish, Turkiya haqida ijobiy tasavvur hosil qilish hamda mamlakatning xalqaro reputatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois Yunus Emre institutining til kurslari, madaniy tadbirlari va akademik loyihalari tashqi siyosatning bilvosita instrumentlari sifatida qaralishi lozim [17].

Shunga yaqin xulosaga Saadet Okumush va Sinem Chelik ham keladilar. Ular 2017–2022-yillardagi Yunus Emre instituti yillik hisobotlarini kontent-tahlil qilish asosida institut faoliyatining geografik qamrovi va yo'nalishlarini o'rgangan. Mualliflarning ta'kidlashicha, institut turk tilini o'qitish, madaniy tadbirlarni tashkil etish, san'at ko'rgazmalari, musiqa festivallari, ilmiy konferensiyalar va universitetlararo hamkorlik dasturlari orqali Turkiyaning madaniy diplomatiya salohiyatini sezilarli darajada oshirgan. Ularning fikricha, aynan madaniyat markazlari orqali shakllanayotgan muntazam muloqot davlatlar o'rtasidagi siyosiy aloqalarga nisbatan barqarorroq ijtimoiy poydevorni yaratadi [18].

Mazkur qarashlar amerikalik diplomat va olim Richard T. Arndtning madaniy diplomatiya haqidagi konsepsiyasi bilan hamohangdir. Arndt madaniy diplomatiyani qisqa muddatli siyosiy manfaatlardan ko'ra uzoq muddatli o'zaro ishonchni shakllantirish vositasi sifatida baholaydi. Uning fikricha, madaniy almashinuv dasturlari natijalari ko'pincha darhol ko'rinmaydi, biroq aynan ular davlatlar o'rtasida barqaror hamkorlik uchun zarur bo'lgan ijtimoiy kapitalni vujudga keltiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Yunus Emre institutining til kurslari va madaniy dasturlari qisqa muddatli targ'ibot kampaniyalari emas, balki uzoq muddatli strategik investitsiya sifatida namoyon bo'ladi.

Britaniyalik olim Nicholas J. Cull ham ommaviy diplomatiya nazariyasida madaniy diplomatiyani "tinglash", "madaniy almashinuv" va "xalqaro hamkorlik" elementlari bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida tavsiflaydi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, zamonaviy madaniy diplomatiya faqat o'z madaniyatini namoyish qilish emas, balki xorijiy jamiyatlar bilan ikki tomonlama muloqotni yo'lga qo'yishni ham nazarda tutadi. Mazkur nazariya Yunus Emre instituti faoliyatiga ham to'liq mos keladi, chunki institut o'z faoliyatini faqat turk madaniyatini targ'ib qilish bilan cheklamay, mezbon davlatlarning ilmiy va madaniy muassasalari bilan qo'shma loyihalarni ham rivojlantiradi.

Xalqaro munosabatlar tizimida siyosiy inqirozlarning kuchayib borish tendensiyasi kuzatilayotgan bir sharoitda, davlatlararo hamkorlik jarayonlarida o'zaro ishonch, birdamlik va diplomatiyaga qaytadan ehtiyoj sezilmoqda. Shu jihatdan, XXI asr boshlaridan ahamiyati sezilarli darajada oshgan xalq diplomatiyasi faoliyati xalqaro muhitda yumshoq kuch elementi sifatida e'tibor qozondi. Shu jihatdan, iqtisodiy va siyosiy beqarorlikni ortda qoldirgan zamonaviy Turkiya jahon siyosatida xalq diplomatiyasi faoliyatida raqobatlasha olish maqsadida *Xalq Diplomatiyasini Muvofiqlashtirish Boshqarmasini* tashkil etdi [19].

Tashkiliy tuzilma turk madaniy diplomatiyasining muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun asosiy vazifalarni bajaradi. Jumladan, uning koordinator raisligi ostidagi besh bo'limi: siyosiy aloqa, madaniyatshunoslik, loyiha ishlab chiqish, OAV bilan ishlash va kotibiyat faoliyat

yuritadi. Koordinatorlik xalq diplomatiyasini rivojlantirish maqsadida xalq diplomatiyasi panellari, tashqi siyosat targ'ibotlari, yoshlar dasturlari va universitetlarda mamlakat uchrashuvlarini tashkil etadi. Chet elda Turkiya bo'yicha ish olib borayotgan tadqiqotchilar va mutaxassislarni, Turkiyadan kelgan tadqiqotchilar va mutaxassislar bilan tanishtirish, xorijda uchrashuvlar tashkil qilish va mamlakatga tashrif buyurgan yetakchi tahlil markazlari bilan birgalikda ishlashni uyushtiradi. Shuningdek koordinatorlik tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatning katta qismini siyosiy muloqot faoliyati tashkil etadi [20].

Madaniy diplomatiyani amalga oshirishda muhim vositalardan biri bu mamlakatdan tashqarida yashovchi millat vakillaridan tashkil topgan diasporalar hisoblanadi. Ular orqali mamlakat madaniyati, tili va dinini kengroq yoyish imkoniyatiga ega bo'ladi. Turkiya xorijda yashovchi turklar va turk qardosh xalqlar manfaatini himoya qilish uchun 2010-yilda *Chet eldagi turklar va qarindosh jamiyatlar boshqaruvi* (YTB) tashkilotini tuzdi va shu yilning 6-aprelida "Xorijdagi turklar va qarindosh jamiyatlar prezidentligining tashkiloti va vazifalari to'g'risida"gi qonunni bilan huquqiy mustahkamladi [21].

Tashkilot asosan qardosh jamoalardagi madaniy-iqtisodiy munosabatlar, qiynalayotgan turklar va chet elda yashayotgan vatandoshlarining muammolariga yechim topish hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, Turkiyada tahsil olayotgan stipendiant talabalarga ko'rsatilayotgan xizmatlar va ushbu sohalardagi faoliyatini muvofiqlashtiradi [22]. YTB hisobotiga ko'ra, 2022-yilda "Turkiya stipendiyalari" uchun 178 davlatdan 165 ming nomzod hujjat topshirgan [23]. Aytish mumkinki, stipendiyalar boshlanganidan buyon minglab talaba Turkiya universitetlarida ta'lim olgan va uzoq muddatli istiqbolda turk xalq diplomatiyasi muvaffaqiyatli natijalarga erishishini tahmin qilsa bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakat TURKPA doirasida muhim konferensiya va simpoziumlar uyushtirib, ko'plab tadqiqotlarda ishtirok etmoqda. 2012-yil 14-16-oktabr kunlari Istanbulda bo'lib o'tgan "Davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish jarayonida yosh liderlarning o'rni" mavzusidagi xalqaro konferensiyada 25 davlatdan yosh deputatlar, diplomatlar va xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. Xalqaro konferensiya yakunida "Mintaqadagi bugungi liderlar kelajakning yetakchilari" shiori bilan Istanbul deklaratsiyasi qabul qilindi [24].

Turkiyaning TDK doirasidagi yana bir strategik loyihasi Turkiy akademiya xalqaro tashkiloti bo'lib (TWESCO), u 2009-yilda bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlat rahbarlarining 9-sammitida Turk dunyosi bo'yicha mushtarak ilmiy tashkilot tuzish taklifi bilan rejalashtirilgan edi va 2010-yil 25-mayda Ostona shahrida tadqiqot markazi sifatida o'z faoliyatini boshladi [25]. Naxchivan sammiti 2014-yil 28-avgustda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya tomonidan asos solingan Xalqaro Turkiy Akademiya sifatida xalqaro tashkilot maqomini oldi [26].

Turkiy Akademiya Turk dunyosining umumiy qadriyatlarini tadqiq etish va rivojlantirish, ularni dunyoga tanitish, Turkiy dunyoning ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy integratsiyasiga hissa qo'shishni maqsad qilgan va ushbu sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib boradigan tashkilotlar o'rtasida muvofiqlashtirishni ta'minlash uchun muhim ilmiy tashkilotdir. Turkiya akademiyasida ta'lim sohasida muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Bular "Turk tarixiy va madaniy qadriyatlari zamonaviy turkiy jamoalarning uzluksiz rivojlanishining manbasi" va "Globallashuv davrida turkiy dunyodagi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jarayonlar" nomli loyihalardir [27]. Bu tadqiqotlar bilan bir qatorda Turkiy Akademiyasda turkiy jamoalar o'rtasida umumiy yozma til yaratish bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda [28]. Bundan tashqari, Turkiy akademiya Turkiy dunyo kutubxonasi va Turkiy xalqlar muzeyi uchun Bishkek kelishuviga muvofiq faoliyat yuritadi [29].

Xulosa

Madaniy aloqalarni bugungi o'zagiga aylanib borayotgan ta'lim va fan sohasida ham mamlakatlar yuksak natijalarga erishmoqda. Ilm-fan rivojlanishi va unga yaratilayotgan sharoitlar Turkiyaning mintaq yoshlari uchun qiziqish maydoniga aylantirmoqda. Jumladan,

nufuzli universitetlarning faoliyati, ularda o'qish uchun xorijliklarga ajratiladigan grantlar chet eldan talabalar oqimining oshishiga olib kelmoqda. Ushbu grantlarni yutib Turkiyada tahsil olgan talabalarni aksar ko'pchiligi mamlakatning o'zida qolib, keyingi faoliyatini davom ettirmoqdalar, o'z vatanlariga qaytganlari ham Turkiya bilan munosbatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqdalar.

Foydalanilgan manbalar.

1. Joseph S. Nye, *Soft Power: The Means to Succeed in World Politics*, New York, Public Affairs, 2004.
2. İbrahim Kalin. *Soft Power and Public Diplomacy in Turkey*. <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/816442>
3. Sait Yağinci. *Cultural Diplomacy as an Important Foreign Aid Tools: The Case Study of Yunus Emre Institute*. [aksarayibd.aksaray.edu.tr](https://akсарayibd.aksaray.edu.tr)
4. Ahmet Dovuto'g'li., *Stratejik Derinlik: Türkiye'nin Uluslararası Konumu*, 2001. – S. 265.
5. Muharrem Ekşi. *Turkey's cultural diplomacy and soft power policy toward the Balkans*. *Karadeniz Araştırmaları*. XIV/55 - Güz 2017 – S.189-208.
6. *Türk hamkorlik va taraqqiyot boshqarmasi*, TİKA rasmiy sayti ma'lumoti, URL: <http://www.tika.gov.tr/tr/sayfa/tarihce-222>
7. Nye J. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. – New York.: Public Affairs. 2004. – P. 51
8. TİKA 30 yilda 30 binden fazla projeyi hayata geçirdi., URL: <https://www.aa.com.tr/tr/gundem/tika-30-yilda-30-binden-fazla-projeyi-hayata-gecirdi/2485672> (foydalanilgan vaqt: 20.07.2024)
9. *Türk hamkorlik va taraqqiyot boshqarmasi*, TİKA rasmiy sayti ma'lumoti. TÜRK İŞBİRLİĞİ ve KOORDİNASYON AJANSI FAALİYET RAPORU 2023. URL: <https://tika.gov.tr/wp-content/uploads/2024/02/TIKA-2023-Idare-Faaliyet-Raporu.pdf> (foydalanilgan vaqt: 20.07.2024)
10. Güncel Haberleri, "2018 Yılı Bütçesi, Plan ve Bütçe Komisyonunda", 1 Kasım 2017,
11. URL: <http://www.mynet.com/haber/guncel/2018-yili-butcesi-plan-ve-butce-komisyonunda-3360643-1> (foydalanilgan vaqt: 17.03.2024)
12. Tuba Çavuş., *Diş politikada yumuşak güç kavrami ve Türkiye'nin yumuşak güç kullanımı*. S.24. URL: <http://iibfdergisi.ksu.edu.tr/tr/download/article-file/107654>
13. Kiliçoğlu, Gökmen & Yilmaz, Ayhan Nuri. (2018) *Türkiye'nin Orta Asya'daki Yumuşak gücü ve Kamu diplomasisi uygulamalarının analizi*. *Türk Dünyası Araştırmaları*. Cilt:119. Sayı:235. S.141-184
14. Ahmet Nafiz Ünalmiş. "Yumuşak Gücün Tesis Edilmesinde Kültürel Diplomasinin Önemi ve Bir Uygulayıcı Olarak Yunus Emre Enstitüsü". *Türk Dünyası Sosyal Bilimler Dergisi*. Güz 2019/Sayı 91. – ss. 137-159. <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/836174>
15. Гайфутдинов Р.И., *Политика Турецкой Республики в отношении Российской Федерации на современном этапе*. Дисс. Канд. Полит. наук. Москва – 2022. – С. 42. URL: https://www.researchgate.net/profile/Ogbolo-Kingsli-Binaebi/publication/361824217_dissertacia/links/62c744e23bbe636e0c48e595/dissertacia.pdf
16. Yunus Emre instituti rasmiy sayti. 2025 Faaliyet Raporu. URL: <https://www.yee.org.tr/tr/yayin/2023-faaliyet-raporu>
17. Muharrem Eksi. *Turkey's Cultural Diplomacy and Soft Power Policy Towards the Balkans*. *Karadeniz Araştırmaları*
18. XIV/55 - Güz 2017 – ss.189-208.
19. Gün, A. F. *Türk Dış Politikasında Kültürel Diplomasi Pratiği: Yunus Emre Enstitülerinin Kamu Diplomasisine Yönelik Faaliyetleri*. *İletişim Ve Diplomasi*, 11, (2023). – S. 157-177.

20. Okumuş, S., & Çelik, S. Kamu Diplomasisi Tekniği Olarak Kültürel Diplomasi: Yunus Emre Enstitüsü Örneği. *Kültür Araştırmaları Dergisi*, 21, (2024). – S. 147-166.
21. Muharrem Ekşi., Mehmet Seyfettin Erol., The Rise and Fall Of Turkish Soft Power and Public Diplomacy
22. URL://http://kdk.gov.tr
23. Yurt Dışı Türkler ve Akraba Toplulukları Başkanlığı, “Mevzuat”
<https://www.ytb.gov.tr/kurumsal/mevzuat>
24. Chet eldagi Turkler va Qarindosh jamiyatlar raisligi rasmiy sayti Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı <https://www.ytb.gov.tr/daireler/yurtdisi-vatandaslar/> [Olindi: 10.05.2024]
25. 2022 Türkiye Bursları Başvuru Sonuçları.
URL://https://www.turkiyeburslari.gov.tr/duyurular/2022-turkiye-burslari-basvuru-sonuclari-28 (Olingan sana 11.05.2024)
26. URL://http://hazar.mediaticlick.work/etkinliler/turkpa-devletlerarasi-isbirligini-gelistirme-suerecinde-gencliderlerin-rolue-konferansi
27. Живалов В.Н. Организация тюркских государств: перспективы развития и риски для Евразийского экономического союза. URL://https://cwejournal.hse.ru/zhivalov22023
28. URL://http://twesco.org/tr/about
29. Политика Турции в Центральном-Азиатском регионе
URL://http://www.mfa.gov.tr/turk-konseyi.tr.mfa
30. Önder Çalağan Orta Asya’ya Yönelik Türkiye’nin Bir Yumuşak Güç Unsuru Olarak Kültür Politikaları. 2015, s.603-604
31. Kıdırali O. Bir Yumuşak Güç Olarak Türkiye’nin Dış Politikasında Yeni Osmanlılık Yaklaşımının Değerlendirilmesi,
URL://https://www.academia.edu/8577845/Bir_Yumuşak_Güç_Olarak_Türkiye_nin_Dış_Politikasında_YeniOsmanlılık_Yaklaşımının_Değerlendirmesi
32. Еномян А.В., Фактор «мягкой силы» во внешней политике Турецкой Республики на южном кавказе (2002-2022 гг.). дис. канд. истор. Наук. Москва – 2023. – С. 53.
33. Mamadjonov, A. (2023). Analysis of theoretical and practical approaches to the concept of soft power. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 3(3), 272.
34. Iymanov, J. (2026). Markaziy Osiyoda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda tdtning funksional-institutsional mexanizmlari. *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar*, 3(5), 149-152.
35. Mamadjonov, A. (2025). “Turkish World” Strategy of Turkey’s Soft Power in Central Asia: Opportunities and Challenges.
<https://aps.tsuos.uz/storage/users/335/articles/BYXsLzf5rYFxBU4HWsrMKnJA7jozsfoJWR3UYOuV.pdf>